


Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



SAMAD BEHRANGIYNING “KICHKINA QORA BALIQCHA” VA RICHARD BAXNING “OQCHARLOQ JONATAN LIVINGSTON” ASARLARIDA ERK KONSEPIYASI

Oydin Turdiyeva

*O'qituvchi, Filologiya fanlari doktori, dotsent,
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 Toshkent, O'zbekiston*

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: Samad Behrangiy, Richard Devid Bax, erk va ozodlik g'oyasi, ramziy va majoziy obrazlar, “Kichkina Qora baliqcha”, “Oqcharloq Jonatan Livingston”.

Annotatsiya: Adabiyot va san'at oldida turgan eng muhim vazifalardan biri shaxsnar tarbiyalash, o'z fikriga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli komil insonni kamol toptirishdir. Erk va ozodlik masalalari jahon adabiyotida eng ma'suliyatli va atroflicha o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu va masalalardan biridir. Mazkur maqola qiyosiy xarakterga ega bo'lib, ikki buyuk adib – eron adabiyotining vakili Samad Behrangiy hamda Amerikalik yozuvchi Richard Devid Baxning asarlari tahliliga bag'ishlangan. Ularning asarlarini tahlil qilish jarayonida g'oyaviy va badiiy o'xshashliklarni uchratish mumkin. Xususan, adiblar bir davrga munosib, asarlarida ko'tarilgan masala ham bir xil. Samad Behrangiy mamlakatda yangi avlod shakllanishida katta rol o'ynadi. Uning kitoblari bo'yicha Eron bolalari o'qishgan va o'qishmoqda, yuzlab yosh pedagog va qishloq o'qituvchilarini uning yangi tarbiya borasidagi g'oyalarini qabul qilishgan. Samad Behrangiy hayotligida Eron Ozarbayjonining o'zi o'qituvchilik qilgan bir nechta shahar va qishloqlaridagina mashhur edi. Lekin, uning o'limidan so'ng Tabrizda nashr qilingan ertaklari va talim-tarbiya borasidagi izlanishlari uning nomini keng ommaga mashhur qildi. Richard Bax esa o'z davrining faylasufi, adib va uchuvchi hisoblanadi. Uni yozuvchi sifatida tanitgan narsa osmon va parvoz zavqiga bo'lgan muhabbatdir. Richard Bax asarining muvaffaqiyatini esa ayrim adabiyotshunoslar undagi voqealarning Injil syujetiga hamohangligi bilan bog'lashsa, ba'zilar uni “iste'molchilar jamiyati”dagi ma'naviy inqirozlar davrining dolzarb muammosini ko'tarib chiqqan asar sifatida baholaydilar. Ularning asarlarida ko'tarilgan erk va ozodlik

masalasi rujni chiniqtirish va bardam qilishga yordam beradigan ma'rifiy asarlardir.

THE CONCEPT OF FREEDOM IN SAMAD BEHRANGIY'S "THE LITTLE BLACK FISH" AND RICHARD BACH'S "JONATHAN LIVINGSTON"

Oydin Turdiyeva

*Teacher, Doctor of Philology, Associate Professor,
Tashkent State University of Oriental Study
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Samad Behrangi, Richard David Bach, the idea of freedom and emancipation, symbolic images, "A little black fish", "Jonathan Livingston Seagull".

Abstract: One of the most important tasks facing literature and art is to educate a person, to develop a perfect human being with his own opinion and high spirituality. The issues of free will and freedom are one of the most responsible and comprehensive topics and issues in world literature. This article has a comparative character and is dedicated to the analysis of the works of two great writers - the representative of Iranian literature, Samad Behrangi and the American writer Richard David Bach. In the process of analyzing their works, one can find ideological and artistic similarities. In particular, the writers belong to the same era, and the issues raised in their works are also the same. Samad Behrangi plays a major role in the formation of a new generation in the country. Iranian children read and are reading his books, hundreds of young pedagogues and rural teachers accepted his ideas on new education.

During his lifetime, Samad Behrangi was famous only in a few cities and villages of Iran Azerbaijan where he was a teacher. However, after his death, his fairy tales published in Tabriz and his research on education made his name widely known. Richard Bach is a philosopher, writer and pilot of his time. What made him known as a writer is his love for the sky and the joy of flight. Some literary experts attribute the success of Richard Bach's work to the harmony of the events in it with the Biblical plot, while others evaluate it as a work that raises the actual problem of the period of spiritual crises in the "consumer society". The issue of free will and freedom raised in their works are enlightening works for training and strengthening the soul.

КОНЦЕПЦИЯ СВОБОДЫ В «МАЛЕНЬКОЙ ЧЕРНОЙ РЫБКЕ» С. БЕХРАНГИ И «ДЖОНАТАНЕ ЛИВИНГСТОНЕ» РИЧАРДА БАХА.

Ойдин Турдиева

*Преподаватель, доктор филологических наук, доцент,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самад Бехранги, Ричард Дэвид Бах, идея свободы и раскрепощенности, символические образы, “Маленькая чёрная рыбка” «Чайка по имени Джонатан Ливингстон».

Аннотация: Одна из важнейших задач, стоящих перед литературой и искусством, состоит в том, чтобы воспитать человека, воспитать совершенного человека со своим мнением и высокой духовностью. Вопросы воли и свободы являются одними из самых ответственных и всеобъемлющих тем и вопросов в мировой литературе. Данная статья носит сравнительный характер и посвящена анализу творчества двух великих писателей – представителя иранской литературы Самада Беранги и американского писателя Ричарда Дэвида Баха. В процессе анализа их произведений можно обнаружить идеино-художественные сходства. В частности, писатели принадлежат к одной эпохе, и вопросы, поднимаемые в их произведениях, тоже одни и те же. Самад Беранги сыграл большую роль в формировании нового поколения в стране. Его книги читали и читают иранские дети, сотни молодых педагогов и сельских учителей восприняли его идеи о новом образовании.

При жизни Самад Бехранги был известен лишь в нескольких городах и селах Иранского Азербайджана, где он был учителем. Однако после его смерти его сказки, опубликованные в Тебризе, и его исследования в области образования сделали его имя широко известным. Ричард Бах — философ своего времени, писатель и пилот. Что сделало его известным как писатель, так это его любовь к небу и радость полета. Одни литературоведы связывают успех произведения Ричарда Баха с гармонией происходящих в нем событий с библейским сюжетом, другие оценивают его как произведение, поднимающее актуальную проблему периода духовных кризисов в «обществе потребителей». Вопрос воли и свободы, поднятый в их произведениях, есть просветительские произведения для тренировки и укрепления души.

KIRISH

Adabiy mavzular zamonlar va makonlar osha ko‘chib yuradi. Bir xalq adabiyotidagi obrazlar yoki syujetlar boshqa bir xalq badiiy tafakkurida butunlay boshqa bir tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Sayyor syujetlar, umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan obrazlar har qanday davrda, xoh u o‘rta asrlar bo‘lsin, xoh hozirgi zamonamiz bo‘lsin, badiiy ifodasini topib kelgan va kelmoqda. Xususan g‘arb adabiyotining bir qancha namunalarida sharq falsafasiga, madaniyatiga, adabiyotiga ohangdosh asarlarni uchratishimiz mumkin. Shunday ohangdoshlik mavjud bo‘lgan asarlardan biri eron bolalar yozuvchisi Samad Behrangiy (1939-1967)ning “Kichkina qora baliqcha” (**ماهی سپاه کوچولو**) asari hamda amerikalik yozuvchi, faylasuf, publitsist Richard Bax (1936-yilda tavallud topgan)ning “Oqcharloq Jonatan Livingston” (**“Jonathan Livingston Seagull”**) nomli rivoyat qissalaridir. Bu har ikki asar ko‘plab tillarga tarjima qilinib, mullionlab nuxsalarda chop qilingan, o‘z muallifiga katta shuhrat keltirgan

asarlardir. Mutaxassislar ushbu asarlarning mashhur bo'lishiga turli sabablarni keltiradilar, jumladan Samad Behrangiy shoh rejimiga qarshi yozuvchi bo'lgan va o'z orzulari va g'oyalarini Kichkina qora baliqcha tilidan ifoda etgan, xalqni zulmga qarshi kurashishga chaqirgan. Richard Bax asarining muvaffaqiyatini esa ayrim adabiyotshunoslar undagi voqealarning Injil syujetiga hamohangligi bilan bog'lashsa, ba'zilar uni "iste'molchilar jamiyat" dagi ma'naviy inqirozlar davrining dolzarb muammosini ko'tarib chiqqan asar sifatida baholaydilar.

Samad Behrangiyning o'z mamlakati yosh avlodni ongi shakllanishida xizmati juda katta bo'lgan. Uning kitoblari asosida eron bolalari tahsil oldilar va tahsil olmoqdalar. Samad Behrangiy hayotlik chog'larida o'zi tug'ilib o'sgan Eron Ozarbayjonining ayrim shahar va qishloqlaridagina tanish edi. 1957-yilda Tabrizdagi o'qituvchilar tayyorlash kollejini tamomlaganidan keyin qishloq muallimi vazifasida faoliyat yurita boshladi. Uning yangi pedagogik g'oyalari aynan 60-yillarda shakllana va tajribadan o'ta boshlagan edi. Shu bilan birga adibga katta shuhrat keltirgan, folklor motivlari va yangicha g'oyalar bilan yo'g'rilgan bolalar uchun mo'ljallangan hikoyalari va ertaklari yozila boshladi. Adibning badiiy asarlariga chuqurroq nazar tashlansa, ulardagi falsafiy ma'no va hayotiy g'oyalar nafaqat yosh avlod, balki o'rta va katta avlod uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu asarlarda fors adabiyotiga xos an'anaviy va azaliy mavzular – halol va harom, ezgulik va yovuzlik,adolat va razolat, jaholat va sadoqat, insof va diyonatsizlik o'rtasidagi kurash sharqona uslubda mohirona tasvirlanadi. Hatto, ularda falsafa va fikrlash tarzi ham sharqonadir. Bu esa yosh avlodni o'z xalqi tarixi va taqdiriga hurmat hamda muhabbat ruhida tarbiyalashda katta ijtimoiy ma'no kasb etadi. Yozuvchining fikricha, yoshlarni bolalikdan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishga undash foydadan holi emas, toki bolalar o'z vatanim, o'z xalqim deyishdan tortinmasinlar, uyalmasinlar. Behrangiyning barcha asarlari chuqur ijtimoiy tanqidiy ruh bilan sug'orilgan bo'lib, bu holat uning asarlariga inqilobiy jarangdorlik baxsh etgan. Behrangiy o'z asarlarida tilda yaxshilik va insonparvarlik g'oyalarini madh etuvchi, amalda esa shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi hokimiyat egalarining yolg'on falsafalarini fosh qila bildi. Afsuski, yozuvchining hayoti juda fojeali yakun topgan, u 28 yoshida sirli ravishda halok bo'lgan. Behrangiyning o'limidan keyin uning barcha asarlari, xususan "Kichkina qora baliqcha" juda mashhur bo'lib ketgan va inqilob ramziga aylangan.

Folklor ananalari hamda qisqa hikmatli so'zlardan foydalangan holda Behrangiy har bir asarini hayot darsiga aylantirdi. Xususan, yozuvchiningadolatsiz ijtimoiy tuzumga, o'z davrini o'tab bo'layotgan tobelik va sustkashlik ananalariga qarshi yo'g'rilgan barcha asarlari ichida, ayniqsa, uning "ماهی سیاه کوچلۇ" ("Kichkina qora baliqcha") asari muhim o'rin tutadi. Jamiyatda shaxs tarbiyasi, mavjud tuzumga bo'lgan tanqidiy munosabat, inson qadr-qimmati va ornomusiga bo'lgan hurmat, tenglik, birdamlik va adolatli hayotga bo'lgan huquqlari, ijtimoiy zulmga qarshi kurash va ushbu kurashda jon fido qilishga tayyorgarlik – shunday g'oyalar ushbu ertakda yorqin ifodasini topgan.

Dunyoni bilish va unda o'z o'rmini topish uchun kichkina qora baliqcha uzoq sayohatga chiqadi. Demak ko'rib chiqayotgan asarlarimizning birinchisida voqealar suv ostida – anhorda boshlanadi. Kichkina qora baliqcha safari davomida ko'rganlari – daryo, dengiz, ko'p mavjudotlar bilan tanishuv, bularning barchasi bolalar uchun yozilgan ajoyib tarixdir. Hayratlanarli darajada ishonchli va yengil bayon qilingan "Kichkina qora baliqcha" ertak-hikoyasi sahifalarida 50-yillardagi Eron xalqining olib borgan ozodlik harakatiga taalluqli bo'lgan lavhalar allegorik ravishda berilgan. Baliqchaning har bir sarguzashti, dushmanlari

(saqoqush,arrabaliq, yovvoyi o'rdak) bilan har bir to'qnashuvi orqasida hayotiy voqealar va hayotiy ijtimoiy prototiplar mavjud.

“Oqcharloq Jonatan Livingston” asari esa uchishning jo'ngina qoidalari bilan qanoatlanadigan, jiddiyroq parvoz qilishni o'rganishga o'zlarini urintirib ham o'tirmaydigan aksar oqcharloqlardan farqli parvozni yaxshi ko'radigan oqcharloq Jonatanning sarguzashtlari haqida. Ko'rinish turibdiki, ikkinchi asar voqealari asosan suv ustida, dengiz qirg'oqlarida va asosan osmonda kechadi. Mazkur asar quyidagi prolog bilan boshlanadi:

Asl Jonatanga – har birimizda yashaydigan oqcharloqqa bag'ishlanadi.¹

Muallif asar boshlanishidanoq o'quvchining diqqatini jamlab, asar oxirigacha diqqatni jamlab turishga erishgan.

Har ikki asar bosh qahramonlari kichkina qora baliqcha hamda oqcharloq Jonatan o'zlar yashaydigan an'anaviy hayotlaridan zerika boshlaydilar. Samad Behrangiy asari qahramoni hayot faqat shu kichkina anhorchadan iborat emasligini anglab yetadi va ketishga qaror qiladi:

یک روز صبح زود، آفتاب نزده، ماهی سیاه کوچلو مادرش را بیدار کردو گفت: «مادر! می خواهم با تو چند کلمه بی حرف بزنم».

مادر، خواب آلود، گفت: «بچه جون! حالا هم وقت گیر آوردى! حرفت را بگذار برای بعد بهتر نیست برویم گردش؟»

ماهی سیاه کوچلو گفت: «نه مادر، من دیگر نمی توانم گردش کنم. باید از اینجا بروم».

مادرش گفت: «حتما باید بروی؟»

ماهی سیاه کوچلو گفت: «آره مادر، باید بروم».

مادرش گفت: «آخر، صبح به این زودی، کجا می خواهی بروی؟»

ماهی سیاه کوچلو گفت: «می خواهم بروم ببینم آخر جو بیار کجاست. می دانی مادر! من ماه هاست تو این فکرم که آخر جز بیار کجاست و هنوز که هنوز زست، نتو انسنته ام چیزی سر در بیارم. از دیشب تا حالا، چشم به هم نگذاشته ام و همه اش فکر کرده ام، آخرش هم تصمیم گرفتم خودم بروم آخر جو بیار را پیدا کنم. دلم می خواهد بدانم جاهای دیگر، چه خبر هایی هست».

مادر خنده و گفت: «من هم وقتی بچه بودم، خیلی از این فکرها می کردم. آخر جانم! جو بیار که اول و آخر ندارد، همین است که هست! جو بیار همیشه روان است و به هیچ جایی هم نمی رسد».

ماهی سیاه کوچلو گفت: «آخر مادر جان! مگر نه این است که هر چیزی به آخر می رسد؟ شب به آخر می رسد، روز به آخر می رسد، هفته، ماه، سال ...»

مادرش میان حرفش دوید و گفت: «این حرف گنده گنده را بگذار کنار، پاشو برویم گردش. حالا موقع گردش است نه این حرف ها!»

ماهی سیاه کوچلو گفت: «نه مادر، من دیگر از این گردش ها خسته شده ام، می خواهم راه بیفهم و بروم ببینم جاهای دیگر چه خبر هایی هست. ممکن است فکر کنی که یک کسی این حرفها را به ما می خواهد کوچلو باد داده، اما بدان که من، خودم خیلی وقت است در این فکرم. البته خیلی چیزها هم از این و آن باد گرفته ام، مثلًا این رافهمیده ام که بیشتر ما ماهی ها، موقع پیروی شکایت می کنند که زندگیشان را بی خودی تلف کرده اند. دائم ناله و نفرین می کنند و از همه چیز شکایت دارند. من می خواهم بدانم که، راستی راستی، زندگی یعنی اینکه تو یک تکه جا، هی بروی و برگردی تا پیر بشوی و دیگر هیچ، یا اینکه طور دیگری هم توی دنیا می شود زندگی کرد؟...²

"Bir kuni erta tongda, quyosh chiqmasdan kichkina qora baliqcha onasini uyg'otdi va dedi: "Onajon! Siz bilan biroz gaplashishni xohlayman."

Onasi uyqusirab dedi: "Bolajonim! Hozir vaqt emas! Keyin gaplashamiz, hozir aylanishga boramiz."

Kichkina qora baliqcha dedi: "Yo'q oyijon, men boshqa aylanishga bora olmayman. Bu yerdan ketishim kerak."

¹ Richard Bax. Oqcharloq Jonatan Livingston. Toshkent 2016.6-s.

² بهرگی، صمد، قصه‌های بهرنگ، تهران، میلاد، ۱۳۸۴، ص ۲۲۱

Onasi dedi: "Albatta ketishing shartmi?"

Kichkina qora baliqcha dedi: "Ha, onajon, ketishim kerak."

Onasi dedi: "Ertalabdan qayerga ketmoqchisan?"

Kichkina qora baliqcha dedi: "Anhorning oxiri qayerdaligini borib ko 'rishni xohlayman.

Bilasizmi, onajon! Men oylab anhorning oxiri qayerdaligi haqidagi fikrda edim va hozirgacha hech narsa bila olmadim. Kecha tundan beri ko 'zimni yummadir va hammasini o 'yladim, oxiri o 'zim borib anhorning oxirini topishga qaror qildim. Boshqa joylarni, yana qanday xabarlar borligini bilishni xohlayman."

Onasi kului va dedi: "Men ham bolalik davrimda shularni o 'ylaganman. Avvali va oxiri bo 'lman anhor mana shu. Anhor hamisha tekis oqadi va hech joyga yetib bormaydi."

Kichkina qora baliqcha dedi: "Onajon! Axir har narsaning oxiri bor-ku, bu unday emasmi? Tunning oxiri, kunning oxiri bor, hafta, oy, yil..."

Onasi gapini bo 'ldi va dedi: "Bu foydasiz gaplarni qo 'y, aylanishga boramiz. Hozir aylanish vaqt, bu gaplarning emas!"

Kichkina qora baliqcha dedi: "Yo 'q, onajon, men bu aylanishlardan charchadim, yo 'lga tushib boshqa joylarni ko 'rishni, qanday yangiliklar borligini bilishni xohlayman. Axir o 'ylab ko 'ring, bir kishi bu gaplarni kichkina qora baliqchaga o 'rgatishi mumkinmi, biling-ki men o 'zim uzoq vaqtadan beri shu fikrdaman. Albatta, ko 'p narsalarni ham undan-bundan o 'rgandim, masalan, shuni tushundimki, ko 'pgina baliqlar keksalik paytida umrini behuda o 'tkazganliklaridan shikoyat qiladilar. Doim noliydilar va hamma narsadan shikoyat qiladilar. Men, hayot, qariguncha bir parchagina joyda u yoqdan bu yoqqa borib kelaverib yashashmi yoki bu dunyoda yashashning boshqacha tarzi ham bormikan, shuni bilmoqchiman.

Kichkina qora baliqchaning gaplari tugaganda, onasi dedi: "Bolajonim! Dunyo!... dunyo!... dunyo yani nima? Dunyo biz turgan joy, hayot ham shuki biz borligimiz..."

Anhorda yashovchilar baliqchaning isyonidan g 'azabga kelib, uni jazolashga qaror qilishadi: oldin ular qo 'rkitib, ko 'ndirishmoqchi bo 'lishdi, keyin esa harakatlari kor qilmagach, baliqchani haydab solishdi:

ماهی هата آмднд ماھى سیاھ کوچولو را بگیرن، دوستانش او را دوره

کردند و از معن که بیرونش بردن. مادر ماھى سیاھ توی سر و سینه اش می زدو گریه می کردو می گفت:

"واي! بچه ام دارد از دستم می رود، چکار کنم! چه خاکی به سرم بربزم!"

ماھى سیاھ کوچولو گفت: "مادر! برای من گریه نکن، برای این پیر ماھى های در مانده گریه کن".

یکی از ماھى ها از دور داد کشید: "توهین نکن، نیم و جبی!"

دوئی گفت: "اگر بروی و بعدش پیشمان بشوی، دیگر راهت نمی دهیم!"

سوئی گفت: "اینها هوس های دوره ی جوانی است، نزو!"

چهار می گفت: "مگر اینجا چه عیبی دارد؟"

پنجمی گفت: "دنیای دیگری در کار نیست، دنیاهمین جاست، برگرد!"

ششمی گفت: "اگر سر عقل بیایی و برگردی، آن وقت باور مان می شود که راستی راستی ماھی فهمیده بی هستی".

هفتمی گفت: "آخر ما به دیدن تو عادت کرده ایم..."

مادرش گفت: "به من رحم کن، نزو! نزو!"

ماھى سیاھ کوچولو دیگر با آنها حرفی نداشت. چند تا از دوستان هم سن و سالش او را تا آبشار همراهی کردند و از آنجا بر

گشتند. ماھى سیاھ کوچولو وقتی از آنها جدا می شد، گفت: "دوستان، به اميد دیدار! فراموش نکنید".

دوسтанش گفтиند: «چطور می شود فراموشت کنیم؟ تو ما را از خواب خوگوشی بیدار کردی، به ما چیزهایی یاد دادی که پیش از این حتی فکرش را هم نکرده بودیم. به امید دیدار، دوست دانوبی باک!³

“Baliqlar kichkina qora baliqchani olib ketish uchun keldilar, do’stlari uni o’rab oldilar va to’dadan olib chiqdilar. Qora baliqchaning onasi ko ‘ksiga urib yig‘ladi va dedi:

“Voy, bolam ketmoqchi, endi nima qilaman!”

Kichkina qora baliqcha dedi: “Onajon! Men uchun yig‘lamang, bu qarigan baxtsiz baliqlar uchun yig‘lang.”

Baliqlardan biri baqirdi: “Haqorat qilma, kichkina!”

Ikkinchisi dedi: “Agar borsang va pushaymon bo‘lsang, boshqa kelishingga yo‘l qo‘ymaymiz!”

Uchinchisi dedi: “Bular yoshlik davrining havaslaridir, qo‘y borma!”

To‘rtinchisi dedi: “Axir bu yerni nima aybi bor?”

Beshinchisi dedi: “Boshqa dunyo kerak emas, dunyo mana shu joy, qayt!”

Oltinchisi dedi: “Agar aqling kirib, qaytib kelsang, o‘scha vaqt rostini tushunganingga ishonamiz.”

Yettinchisi dedi: “Biz seni ko‘rishga o‘rganib qolgan edik...”

Onasi dedi: “Borma! Menga rahming kelsin.”

Kichkina qora baliqcha boshqa ular bilan gaplashmadi. Bir qancha tengdosh do’stlari ham uni sharsharagacha kuzatib qo‘yishdi va u yerdan qaytib keldilar. Kichkina qora baliqcha ular bilan xayrlashayotganda dedi: “Do’starim, ko‘rishguncha! Meni yodingizdan chiqarmang.”

Do’stleri deyishdi: “Seni yodimizdan chiqarsak nima bo‘ladi? Sen bizlarni noto‘g‘ri fikrlashdan qaytarding, bizlarga o‘rgatgan narsalarini hatto o‘ylab ham ko‘rmagan edik, dono va jasur do‘stimiz!”

Mustaqil sayohatining birinchi daqiqalaridayoq baliqcha u suzib o‘tgan suv havzasida yashovchilar hayotida, uning atrofida muttasil o‘zgarib turgan tabiat olamidagi yangi hayotni anglay boshladi. Sayohatining birinchi davrida boshidan kechirganlari uning bahslarda dunyonи mustaqil bilishga haqli ekanini uqtirganlari, o‘scha to‘qnash kelganlar fikr-o‘ylaridan ustun ekanligini anglashga yordam berdi. Shuning uchun, ertakda o‘ziga ishonch, xotirjamlik polemikasiga sezilarli joy ajratilgan. Ushbu fikrlar yozuvchiga zamona tomonidan olg‘a surilgan yangi g‘oya va axloqiy vazifalarni yorqinroq va ko‘rinarli ravishda ochib berish imkonini berdi.

Oqcharloq Jonatan esa mayda tashvishlar – qirg‘oqdan kemaga, kemadan qirg‘oqqacha uchib-qo‘nib umr o‘tkazishdan charchaydi. U nihoyat g‘aflatni tark etishga, o‘zidagi kuch-qudratni, aql-idrokni ishga solishga va nihoyat chinakam parvoz zavqini o‘rganishga qaror qiladi. Shu maqsadda u o‘zi kashf qilgan parvoz sirlarini o‘rganishga, mukammallashtirishga, o‘z galasiga bularning barchasini tushuntirish va o‘rgatishga harakat qiladi. Biroq an‘anaviy hayot tarzini eng to‘g‘ri yo‘l deb bilgan to‘da uni Oqcharloqlar kengashi muhokamasiga chaqiradi va uni beandishalik, o‘zboshimchalik va mas’uliyatsizlikda ayblaydi:

— ... va sen — Oqcharloq Jonatan Livingston bir kun kelib mas’uliyatsizlik qanday oqibatlarga duchor etishini anglab yetasan. Bizga hayot mohiyatini anglashga urinish buyurilmagan. Faqat bir narsa ayon: bu dunyoga biz rizqimizni topib yeyish va shuning evaziga imkon boricha uzoqroq umr ko‘rish uchun kelganmiz, xolos.

³ بهرگی، صمد، قصه‌های بهنگ، تهران، میلا، ۱۳۸۴، ص ۲۲۲

Kimki Oqcharloqlar Kengashi muhokamasiga tortilgan bo'lsa, gala ahli bilan majlisda bahslashishi taqiqlangandi, biroq Jonatan o'zini tutib turolmadı:

- Beandishalik deysizmi?! – xitob qildi u. – Sizlarga nima bo'ldi, birodarlar?! Hayotning mohiyatini tushunishga urinish, katta maqsadlarga olib boradigan yo'llarni izlash – axir buning nimasi beandishalik? O'zingni bu oljanob ishlarga bag'ishlash – mas'uliyatni to'la his etish-ku! Axir, biz hozirgacha nimani tushunib yetdik? Bاليقning ichak-chavog'ini talashib, minglab yillarni boy berdik... Endi bizda ibtidomizni – nima uchun yashayotganimizni anglash imkoniyati paydo bo'ldi. Kashf etish, tushunish, ozod bo'lish imkoniyati! Menga bir martagina imkon bering...⁴

Shu tariqa Jonatan Oqcharloqlar jamoasi safidan quvg'in qilinadi. Galadan haydaladi, olis qoyalarga surgun qilinadi.

Guvohi bo'lamiczki, har ikki qahramon ham o'z yaqinlari tomonidan quvg'inga uchraydi va yakka holda maqsad sari yo'l oladilar.

Baliqcha safari davomida ko'plab kulgili va xavfli holatlarga tushadi, turli yaxshi, yomon jonivorlarga, jonzotlarga duch keladi, uchrashadi va oxir-oqibat o'z maqsadiga – erk va ozodlik ramzini ifodalovchi bepoyon dengizga yetib keldi. Aynan shu yerda, baliqcha o'z hamfikrlarini, keyingi hayotini ular bilan davom ettirishni xohlagan maslakdoshlarini topadi. Muallifning ko'zlagan fikr-o'yłari butunlay oydinlashadi, bu yerda u o'zining kurashchan insonning ommaviy jamoat harakati qatnashchisining o'rni, vazifalari haqidagi fikrlarini, tasavvurlarini ochib beradi.

حالا دیگر кое и дре تمام шеде бод и рудхане аз дешт ҳумарӣ ми گашт. аз راست و چپ، چند رود خانه‌ی کوچک دیگر هم به آن پیوسته بود و آبش را چند برابر کرده بود. ماهی سیاه کوچلو از فراوانی آب لذت می برد. ناگهان به خود آمد و دید آب ته ندارد. اینور رفت، آنور رفت، به جایی برنخورد. آنقدر آب بود که ماهی سیاه کوچلو تویش گم شده بود! هر طور که دلش خواست شنا کرد و باز سرش به جایی نخورد...

Endi atrofda tog'lar ko'rinnmasdi va anhor dashtdan tekis oqib o'tardi. O'ng va chapdan bir qancha kichik anhorchalar unga qo'shilib ketardi va anhor suvini ko'paytirardi. Qora baliqcha suvning ko'pligidan lazzatlanardi. Nogahon o'ziga keldi va suv qirg'oqlari yo'qligini ko'rди. U yer bu yerga suzdi. Hech joyga yetib bormadi. Suv shu qadar ko'p ediki, kichkina qora baliqcha u yerda adashib qolishi mumkin edi! U hohlaganicha suzib yurdi.

Oqcharloq Jonatan ham yolg'izlanib qolmadi. Unga ergashgan yosh quvg'indi oqcharloqlar paydo bo'la boshladi. Endi Jonatan shogirdlariga parvoz sirlarini o'rgata boshladi. Mashg'ulotlar paytida Jonatanning aytgan quyidagi so'zlari asar mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi:

- Har birimizda Buyuk Oqcharloq g'oyasi mujassam. Bu har qanday to'siqlardan xoli mutlaq ozodlik g'oyasidir. Shuning uchun ham parvozda aniqlik va mukammallikka erishish – botinimizdagи haqiqiy mohiyatni kashf etish va namoyon qilish yo'lidagi ilk qadam. Bu yo'lda to'siq bo'ladigan narsalardan xalos bo'lish zarur. Katta tezlikda uchish, tezlikni me'yorida saqlash, yuksak parvoz sirlarini egallash – mashqlarning muhim jihat shunda...⁵

⁴ Richard Bax. Oqcharloq Jonatan Livingston. Toshkent 2016.23-s.

⁵ Richard Bax. Oqcharloq Jonatan Livingston. Toshkent 2016.53-s.

Bu ikki asarni qiyosiy tahlil etar ekanmiz, ulardagi asosiy g'oya – inson erkinligi, ozodligi g'oyasi yotishini ko'ramiz. Har ikki asar deyarli bir vaqtida yaratilgan. Samad Behrangiyning "Kichkina qora baliqcha"si 1968-yilda, Richard Baxning asari esa 1970-yilda ilk bor chop etilgan edi. Ularda ilgari surilgan g'oyalar ham bir-biriga hamohang. Asar qahramonlarining fikrlashi, maqsadlari bir. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun hech qanday to'siq va qarshiliklardan qo'rqlaydigan qahramonlardir. Har ikki asar qahramoni o'z maqsadiga erishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kichkina qora baliqcha va Oqcharloq Jonatan Livingston hozirgi zamon yoshlariga ulkan bir ibrat namunasi, insonni komillikkha chorlaydigan obrazlardir. Yoshlar bu majoziy obrazlarda o'z botinlaridagi Parvozga ehtiyojni his etadilar. Ular Kichkina qora baliqcha va Jonatanda o'zlarining amalga oshmagan, biroq amalga oshishi lozim bo'lgan istak-xohishlarini ko'radilar. Bu asarlar o'quvchi uchun ermakka o'qiladigan qissa emas, balki ruhni tarbiyalash, chiniqtirish, bardam qilish yo'lidagi ma'rifiy jarayonga aylanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kichkina qora baliqcha va Oqcharloq Jonatan Livingston hozirgi zamon yoshlariga ulkan bir ibrat namunasi, insonni komillikkha chorlaydigan obrazlardir. Yoshlar bu majoziy obrazlarda o'z botinlaridagi Parvozga ehtiyojni his etadilar. Ular Kichkina qora baliqcha va Jonatanda o'zlarining amalga oshmagan, biroq amalga oshishi lozim bo'lgan istak-xohishlarini ko'radilar. Bu asarlar o'quvchi uchun ermakka o'qiladigan qissa emas, balki ruhni tarbiyalash, chiniqtirish, bardam qilish yo'lidagi ma'rifiy jarayonga aylanadi.